



**Tadbirkorning 18 ta
savdo do'koni buzilgan...**

4-betda o'qing



**O'qib, sizga shahar olib
beraman!**

8-betda o'qing

INSON va qonun

2023-YIL
18-APREL
SESHANBA

No 15 (1375)

www.hudud24.uz

@adolat_nashrlari



"ADOLAT"

**"ADOLAT" milliy
huquqiy axborot
markazi nashrlariga
obuna bo'ling!**



"Adolat
nashrlari"
telegram
kanalida
kuzating!



www.adolatmarkazi.uz [telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official) facebook.com/hudud24official/



XALQARO YURIDIK FORUMI



2023-yil 17-18-may



Toshkent shahri

reg.tashkentlawspring.uz



"Tashkent Law Spring" III Xalqaro yuridik forumi Markaziy Osiyo mintaqasida huquq sohasidagi muhim voqealardan biridir. Forum **O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi** huzurida ikki yilda bir marta o'tkaziladi.

2 JARAYON

"Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, jamiyat hayotining turli jabhalarida inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlar ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lmoqda.

Buning yorqin ifodasi sifatida, taklif etilayotgan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ushbu tamoyil muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning doirasida yangi va konseptual ahamiyatga ega bo'lgan normalar belgilandi.

Birinchi marta, "Insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash - davlatning oliy maqsadi" ekanligi, Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada o'z ifodasini topdi. Bu esa, "Inson - jamiyat - davlat" degan asosiy tamoyilni Konstitutsiyamizning mazmunida aks ettirib, Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida amaliy hayotimizning bosh qadriyatiga aylantirish hisoblanadi.

Xususan, mamlakatimizda "o'lim jazosi"ning taqiqlanishi konstitutsion norma bilan tartibga solindi. O'lim jazosining taqiqlanganini Konstitutsiya darajasida belgilab qo'yilishi, o'z navbatida shaxsning yashashga oid huquqini hech qanday moneliklarsiz kafolatlashda muhim ahamiyat kasb etadi.



SO'NGGI yillarda, inson qadri yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

INSONNING HUQUQ VA ERKINLIKLARINI TA'MINLASH - DAVLATNING OLIY MAQSADI

Zero, yashash huquqi bu har birimizning tabiiy huquqimiz bo'lib, bu huquqni bizga Yaratganning o'zi ato etgan.

Bundan tashqari, shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo'lishi mumkin emasligi konstitutsion qoida sifatida bayon etildi.

Amaldagi mehnat qonunchiligi bilan cheklanganligiga qaramay, ijtimoiy hayotimizda shaxsning sudlanganligi fakti uning qarindoshlari hayotiga, xususan ayrim huquqlari (erkin kasb tanlash

huquqi)ga o'z ta'sirini ko'rsatishi uchraib turmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning ushbu normasi iqtidorli yosh kadrlarning o'z orzu-umidlarini ro'yobga chiqishida va yosh oilalarni turmushdan ajrashishigacha majbur qilgan bunday asossiz taqiqlarga chek qo'yadi, shuningdek har bir shaxsning qonun va jamiyat oldida individual ravishda javob berishi tamoyilining huquqiy kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 26-moddasida "Insonning sha'ni va qadr-qimmati daxlsizligi, hech narsa

ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emasligi" taklif etilgan. Aytish lozimki, insonni e'zozlash, uning huquq va erkinliklarini himoya qilish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biridir. Zero, inson, uning hayoti, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyatdir.

Shuningdek, Yangilanayotgan Konstitutsiyada "hech kimga uning roziligsiz qonunchilikda belgilanmagan majburiyat yuklatilishi mumkin emasligi", "O'zbekiston Respublikasi fuqarosi mamlakatimizdan tashqariga majburiy chiqarib yuborilishi yoki

boshqa davlatga berib yuborilishi mumkin emasligi" kabi konstitutsion normalar "Inson qadri uchun" tamoyili doirasidagi qoidalar hisoblanadi.

Xulosa o'rinda ta'kidlash lozimki, Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida Bosh qomusimiz hisoblangan Konstitutsiyaning isloh etilishi o'z navbatida mamlakatimizda inson qadri yanada yuksaltirishda hamda erkin fuqarolik jamiyatini samarali rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Azizjon XO'JANAZAROV,
Toshkent davlat yuridik universiteti katta o'qituvchisi (PhD)

Avval inson,

KEYIN - JAMIYAT VA DAVLAT

YANGI tahrirdagi Konstitutsiya loyihasiga nazar tashlasak, ijtimoiy davlatga xos yondashuvlar ta'lim sohasiga oid ko'plab modda va normalarda o'z ifodasini topganiga amin bo'lamiz. Ya'ni bu toifadagi normalar soni qariyb ikki barobarga oshirilib, ta'lim olish huquqi va imkoniyatlari tubdan kengaytirilmoqda.

Fuqarolarning oliy ta'lim muassalarida davlat granti hisobidan o'qish huquqi qat'iy belgilab qo'yilmoqda. Ma'lumki, 2017-yilgacha oliygohlarda o'qish uchun davlat grantlari soni faqat qisqarib kelgan bo'lsa, oxirgi olti yilda bu boradagi ahvoldan butunlay o'zgardi. Grantlar soni bakalavriatda 2 baravar, magistratura uchun esa 5 baravar ko'paydi.

Konstitutsiyaviy qonun loyihasida yoshlar uchun alohida bob qo'shilib, yoshlar huquqlari himoyalaniishi hamda ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirokini rag'batlantirish kafolatlanmoqda. Jumladan, davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari

himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi. Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratilishi belgilanganligi quvonarli hol albatta.

Bundan tashqari, fuqarolarning bepul boshlang'ich kasb-hunarga o'qitilishi ham belgilanayotgani no'gironligi bo'lgan bolalarga o'z tengdoshlari bilan bir xil ta'lim olishi uchun barcha sharoitlarni yaratish ko'zda

tutilayotgani bilan ahamiyatlidir. Inklyuziv ta'limning Konstitutsiyaga kiritilayotgani shunday nuqsonlarga ega bolalarimizning yakkalanib qolmasligi, aksincha, jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida kamol topishi uchun muhim kafolatdir.

Konstitutsiyada davlatning o'qituvchilar sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qilish majburiyati kuchaytirilyapti. Shu tariqa mamlakatimizdagi 685 ming nafardan ortiq o'qituvchining professional o'sishi hamda ijtimoiy va moddiy qo'llab-quvvatlanishini huquqiy kafolatlash natijasida ularning jamiyatdagi ijtimoiy maqomi, obro'-e'tibori yanada oshadi.

Endi farzandlar tarbiyasi bilan bir qatorda, ularga ta'lim berish, barkamol voyaga yetkazish ham ota-onalarning majburiyati ekanini Konstitutsiyada mustahkamlanmoqda. Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun esa davlatning burchi sifatida belgilanmoqda.

Bugun mamlakatimizda barcha sohalar qatori ta'lim tizimida ham izchil islohotlar olib borilayotgani va bu islohotlar natijasida ta'lim sifati, ta'lim tizim xodimlari faoliyatida keskin ijobiy o'zgarishlar yuz berayotgani ayni haqiqat.

Muxtasar aytganda, 2023-yil 30-aprel kuni bo'lib o'tadigan referendum - demokratiyaning yaqqol ifodasi bo'lishi shubhasiz. Zero, bugungi konstitutsiyaviy islohotlar "Avval inson, keyin - jamiyat va davlat" degan g'oya asosida erkin, demokratik, huquqiy va ijtimoiy davlatni shakllantirish hamda taraqqiy ettirishga qaratilmoqda.

Bahodir ALIYEV,

Favqulodda vaziyatlar vazirligi bosh mutaxassisi, mayor

AGAR YOSH, SALOHİYATLI
SHIFOKOR BO'LSANGIZ...

- YAQINDA shifoxona-ga ishga joylashdim. Yangi ish boshlagan salohiyatli yosh shifokorlarga 1 million so'mgacha ustama beriladi, deb eshitdim. Mazkur ustama menga ham to'lanadimi?

G. MIRZAYEVA

- Agar yosh salohiyatli shifokor bo'lsangiz, bu imkoniyat sizga albatta taqdim etiladi. Adliya vazirligi tomonidan 2023-yil 16-yanvarda ro'yxatdan o'tkazilgan "Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi to'g'risida"gi Nizomga ko'ra, tibbiyot muassasasining yuqori malakali, alohida natijaga erishgan, halol va vijdonan ishlayotgan tibbiyot hamda farmatsevtika xodimlariga oylik lavozim maoshining 100 foizigacha hamda boshqa xodimlarga 75 foizigacha, yangi ish boshlagan salohiyatli yosh shifokorlarga 1 million so'mgacha maxsus, oilaviy shifokor punktlari, oilaviy poliklinikalar va ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalarda kunduzgi statsionar ish vaqtini soat 20:00 gacha uzaytirish hisobiga ikkinchi smenada ishlovchi shifokor hamda hamshiralarga lavozim maoshining 30 foizigacha oylik qo'shimcha ustamalar beriladi. Oylik foizli ustamalar tibbiyot muassasasi xodimlarini reyting baholash tizimi asosida amalga oshiriladi.

MAHKUMNING JAZONI O'TASH
DAVRIDA BAJARADIGAN ISHI
PENSIYA TAYINLASHDA INOBATGA
OLINADIMI?

- Turmush o'rtog'im jazoni ijro etish muassasasida jazoni o'tayapti. Mahkumlarning jazoni o'tash davrida bajaradigan ishi pensiya tayinlashda ish stajiga qo'shiladimi?

O. QODIROVA

- "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunga kiritilgan qo'shimchaga ko'ra, ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarning jazoni ijro etish muassasalarida jazoni o'tash davrida bajaradigan har qanday ishi, agar ushbu ish bajarilgan davr uchun jazoni ijro etish muassasasi tomonidan ijtimoiy soliq to'langan bo'lsa, pensiya tayinlashda ish stajiga qo'shib hisoblanadi.

QONUNCHILIKDA
QANDAY IMTIYOZLAR BOR?

- Bolalikdan nogironman. Qonunchilikda nogironli bo' shaxslar uchun qanday imtiyozlar mavjud?

D. ISMOILOVA

- "Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qaroriga muvofiq, 2023-yilda muhtoj shaxslar zamonaviy oyoq protez-ortopediya buyumlari bilan, "Ijtimoiy himoya yagona reyestri"ga kiritilgan va I guruh nogironligi bo'lgan shaxslar son protezi, boldir protezi va oyoq kamari ortoped apparatlari bilan bepul ta'minlanishi belgilangan. Joriy yilning 1-sentabridan nogironligi bo'lgan shaxslarni protez-ortopediya moslamalari va reabilitatsiya vositalari bilan ta'minlashda tibbiy xulosa talab qilinmaydi.

Jumladan, 1-maydan shifoxonalarda davolanayotgan nogironligi bo'lgan bolaga g'amxo'rlik qilayotgan shaxslarga ham bolaning yonida bo'lish uchun sharoit yaratiladi hamda mazkur davr uchun mehnatga layoqatsizlik varaqasi va bepul ovqat beriladi.

Agarda pediatriya tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalari bolani nogironligi bo'lgan shaxs deb topganda ularga pensiya tayinlashda qaytadan tibbiy-ijtimoiy ekspertizaga yuborish bekor qilinadi. Bundan tashqari, I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar va ularga g'amxo'rlik qiluvchilar davlat xizmatlaridan navbatsiz foydalanadi, mansabdor shaxslar qabuliga navbatsiz kiradi.



- Hozirgacha nogironligi bo'lgan bolaga nafaqa tayinlash alohida murojaat qilinganidan keyin tayinlanardi. Shunda ham ayrim hollarda arizamiz qanoatlan-tirilmadi. Bu tartib hali ham kuchidami yoki yengilliklar joriy qilinganmi?

T. XOLIQOVA

NAFAQA OLISH UCHUN
MUROJAAT QILISH SHARTMI?

- Bu borada qonunchilikda o'zgarishlar bo'ldi. Ya'ni, endilikda hukumatning 2023-yil 23-martdagi qarori bilan tasdiqlangan "Ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan ayrim toifadagi shaxslarga nafaqa tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida nizom"ga asosan nogironligi bo'lgan bolalarga nafaqa murojaat qilinganligidan qat'i nazar tayinlanadi.

Nizom bilan quyidagi ijtimoiy himoyaga muhtoj ayrim toifadagi shaxslarga nafaqalarni tayinlash tartiblari belgilandi:

- ☒ nogironligi bo'lgan 18 yoshgacha bolalarga;
- ☒ o'zgarlar parvarishiga muhtoj nogironligi bo'lgan 18 yoshgacha bolaning parvarishi bilan band bo'lgan qonuniy vakilga;
- ☒ davlat pensiyasini tayinlash uchun zarur ish stajiga ega bo'lmagan I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga;
- ☒ davlat pensiyasini olish huquqiga ega bo'lmagan vafot etgan shaxsning qaramog'idagi oilaning mehnatga layoqatsiz a'zolariga;
- ☒ davlat pensiyasini tayinlash uchun zarur ish stajiga ega bo'lmagan kexsa yoshdagi shaxslar hamda bolalikdan nogironligi bo'lgan farzandi bor onalarga.

Shunga ko'ra, nogironligi bo'lgan 18 yoshgacha bolalarga nogironlik, parvarishlash, boquvchisini yo'qotganlik va yoshga doir nafaqalar tayinlanadi.

Nogironligi bo'lgan 18 yoshgacha bolalarga nafaqa hamda parvarishlash nafaqasi Pensiya jamg'armasi tomonidan "proaktiv shakl"da tayinlanadi. Nogironlik, boquvchisini yo'qotganlik va yoshga doir nafaqalar tayinlanishi uchun davlat xizmatlari markazlari yoki YalDXP (my.gov.uz) orqali murojaat qilinadi. Davlat xizmatlari markazidan ma'lumot olingandan so'ng 5 daqiqa ichida nafaqa tayinlangan taqdirda, nafaqani qachon va qayerdan olish to'g'risida murojaat qiluvchini xabardor qiladi.


Nafaqalar nafaqa oluvchining xohishiga ko'ra nafaqani yetkazib berish vakolati yuklangan tashkilot yoki fuqarolarning depozit hisobvaraqlariga pul o'tkazish yo'li bilan bank filiali orqali to'lanadi. Nafaqalar har oyda belgilangan muddatlarda, biroq joriy to'lov oyidan kechikmay to'lanadi. Nafaqa oluvchi O'zbekiston hududida doimiy yashash uchun boshqa tuman (shahar)ga ko'chganda, nafaqani to'lash yangi yashash joyi bo'yicha davom ettiriladi. Bunday holatda nafaqa to'lash avvalgi yashash joyi bo'yicha nafaqa to'lash to'xtatilgan vaqtdan boshlab davom ettiriladi.

15 kun ichida 50 foizini to'lasangiz...

- Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda ma'muriy jarimalar 15 kun ichida to'lansa, 50 foizini to'lashdan ozod etilishi haqidagi xabarlar ko'zim tushdi. Shu rostmi?

S. OCHILOV

- Ha, haqiqatan ham shunday. Prezidentning 2023-yil 23-martdagi qaroriga muvofiq, ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha qo'llanilgan jarimani ixtiyoriy to'lash tizimi yanada soddalashtirildi. Unga ko'ra, joriy yil 1-maydan huquqbuzar unga jarima solish to'g'risidagi qaror topshirilgan kundan boshlab 15 kun ichida jarima miqdorining 50 foizini, 30 kun ichida 70 foizini ixtiyoriy to'lagan taqdirda, u jarimaning qolgan qismini to'lashdan ozod qilinadi. Yanada muhimi, mazkur tartib endilikda sud qarorlariga asosan qo'llaniladigan jarimalarga nisbatan ham tatbiq etiladi.



MUROJAATLAR

ANDIJON



TOSHKENT shahar “Ko’chma mexanizatsiyalashgan korxona” (“Andijon qurilish montaj ko’rki” MChJ huquqiy vorisi) mas’uliyati cheklangan jamiyatining Andijon shahar hokimligidan buzilgan bino-inshootlar uchun kompensatsiya to’lovini undirib berishni so’rab qilgan murojaati Andijon shahar adliya bo’limi tomonidan o’rganildi.

TADBIRKORNING 18 TA SAVDO DO’KONI BUZILGAN...

Aniqlanishicha, “Andijon qurilish montaj ko’rki” MChJga mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlar bilan tegishli bo’lgan 18 ta savdo do’koni bino-inshootlari Andijon shahar hokimining qaroriga asosan 2019-yilda to’liq buzilgan.

Shuningdek, hokimlik 2019-yil noyabr oyida jamiyat va shahar hokimligi o’rtasida tuzilgan kelishuv shartnomasi shartlari bo’yicha tovon (kompensatsiya) puli va yer maydoni o’rniga yer maydoni ajratib berish majburiyatini olgan. Biroq, hokimlik tomonidan yuqoridagi kelishuv shartnomasi bajarilmagan.

Prezidentning 2021-yil 8-iyundagi “Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta’minlash, yerga bo’lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi farmonning 4-bandiga asosan mahalliy davlat hokimiyati organlarining yer uchastkalarini to’g’ridan-to’g’ri ajratish bo’yicha vakolatlari 2021-yil 1-avgustdan bekor qilingani sababli shahar hokimligi tomonidan yer maydoni ajratib berishning imkoniyati yo’q.

“Yer kodeksi”ning 41-moddasida yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, yer uchastkalari ijarachilari va mulkdorlari huquqlarining buzilishi natijasida yetkazilgan zarar (shu jumladan boy berilgan foyda) to’la hajmda qoplanishi kerakligi ko’rsatilgan.

Baholash tashkilotining xulosasiga ko’ra, tadbirkorga tegishli bo’lgan buzilgan bino-inshootlarning umumiy summasi 3 milliard 131 million 820 ming 388 so’mga tengligi belgilangan.

Mazkur holat yuzasidan adliya bo’limi tomonidan tadbirkorning manfaatini ko’zlab, hokimlikdan buzilgan bino va inshootlar uchun kompensatsiya to’lovi hamda ekspertiza xarajatlarini undirib berish haqida Andijon tumanlararo iqtisodiy sudiga da’vo arizasi kiritildi.

Sud tomonidan da’vo to’liq qanoatlantirilib, shahar hokimligidan MChJ foydasiga 3 milliard 131 million 820 ming 388 so’m kompensatsiya undirish haqida hal qiluv qarori qabul qilindi.

Azizbek RAUPOV,
Andijon shahar adliya bo’limi bosh maslahatchisi

TOSHKENT

FUQARO M.Po’latova Olmazor tuman adliya bo’limiga murojaat qilib, ish joyida ustama to’lab berilmayotganidan norozi bo’lib, bu borada amaliy yordam berishni so’ragan.

FARROSHGA USTAMA TO’LANMAGAN



Aniqlanishicha, fuqaro Olmazor tuman maktabgacha ta’lim bo’limida 2018-yil 1-martdan buyon farrosh bo’lib ishlayotgani biroq, tuman maktabgacha ta’lim bo’limining 2021-2023-yillarga mo’ljallangan jamoa shartnomasiga asosan ish beruvchi tomonidan uning tarif stavkasiga nisbatan har oylik 10 foizlik ustama to’lab berilmagani ma’lum bo’ldi.

Tuman maktabgacha ta’lim bo’limining 2021-2023-yillarga mo’ljallangan jamoa shartnomasining 50-bandida ish jarayonida zararsizlantirish vositalaridan foydalan-gani uchun farroshlarning lavozim maosh-lariga 10 foiz miqdorida kompensatsiya berilishi ko’rsatib o’tilgan. Bu maktabgacha ta’lim bo’limining adliya bo’limiga taqdim qilgan xatida ham keltirilgan. Shuningdek, xatda M. Po’latovaga jami 1 million 974 ming 990 so’m ish haqiga nisbatan kam to’lan-gani ham bayon qilingan.

Mehnat kodeksining 154-moddasiga ko’ra, ish beruvchi o’zining moliyaviy ho-latidan qat’i nazar, xodimga bajargan ishi uchun haqni belgilangan mehnat haqi shartlariga muvofiq ushbu kodeksning 161-moddasida ko’rsatilgan muddatlar-da to’lashi shart. Mehnat shartnomasining taraflar kelishuvi bilan belgilangan mehnat haqi miqdori jamoa shartnomasi yoki keli-shuvda o’rnatilgan miqdordan kam to’lishi mumkin emas, deb belgilangan.

Mazkur kodeksning 153-moddasiga ko’ra, mehnat haqi shakli va tizimlari, mukofotlar, qo’shimcha to’lovlar, ustamalar, rag’batlantirish tarzidagi to’lovlar jamoa shartnomalarida, shuningdek ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo’mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi bilan kelishib qabul qilinadigan boshqa lokal hujjatlarda belgilanadi. Mehnatga haq, qoi-da tariqasida, pul shaklida to’lanadi.

Shunga ko’ra, M. Po’latovaga to’lanishi lozim bo’lgan ustama pulini undirish yuzasi-dan fuqarolik ishlari bo’yicha Shayxontohur tumanlararo sudiga da’vo arizasi kiritildi. Sudning 2023-yil 10-apreldagi hal qiluv qaroriga asosan farroshga ustama puli to’la-nadigan bo’ldi.

Shamsiddin AMONOV,
Olmazor tuman adliya bo’limi boshlig’i

BUXORO

VOBKENT tumanidagi umumta’lim maktabida o’qituvchi bo’lib ish-layotgan fuqaro A.T. ning fan olimpiadasi g’olibligi uchun to’lanishi lozim bo’lgan ustama to’lovi to’lan-mayotganidan norozi bo’lib qilgan murojaati Buxoro viloyat adliya boshqarmasi tomonidan o’rganib chiqildi.



O’rganish jarayonida unga Preziden-timzning 2019-yil 3-maydagi “Iqtidorli yosh-larni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarorining 5-bandida ko’rsatilgan ta’lim muassasalarida o’qituvchi bo’lib faoliyat yuritayotgan aso-siy olimpiadalar respublika bosqichi g’oliblari lavozim maoshiga har oy 100 foizlik ustama haqi to’lovi to’lanishi, ammo u ushbu imti-yozdan foydalana olmayotgani aniqlandi.

Natijada adliya boshqarmasi tomonidan tuman xalq ta’limi bo’limi rahbari nomiga taqdimnoma kiritildi va fuqaroga 56 million 873 ming 454 so’m miqdoridagi ustama puli to’lab berilishi ta’minlandi.

Halim FARMONOV,
Buxoro viloyat adliya boshqarmasi mas’ul xodimi

ADLIYA NIGOHIDA

SAMARQAND

TOYLOQ tumanidagi "Fayzobod" mahallasida yashovchi fuqaro A.Q. tumandagi 42-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida 2015-yildan buyon ishlab kelgan.



O'qituvchidan ushlab qolingani SOLIQ PULI QAYTARILDI

Tegishli tibbiy ma'lumotga ko'ra, unga nogironlik guruhi belgilangan. Amaldagi Soliq kodeksiga asosan bo'lalikkidan nogironligi bo'lgan, shuningdek, I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar soliq to'lashdan qisman ozod etilishi belgilangan bo'lishiga qararasdan, tuman xalq ta'limi bo'limi mas'ullari buni inobatga olmasdan, o'qituvchining ish haqidani ortiqcha daromad solig'i ushlab qolavergan. Huquqlari buzilgan o'qituvchi tuman adliya bo'limiga murojaat qilishga majbur bo'lgan.

O'rganish jarayonida fuqaroning ish haqidani 2022-yil 12 oyi hamda 2023-yilning yanvar oyida jami 6 million 122 ming 47 so'm miqdorida daromad solig'i ushlangani ma'lum bo'ldi. Ortiqcha undirilgan ushbu pulni qaytarish yuzasidan adliya bo'limi tomonidan fuqarolik ishlari bo'yicha Toyloq tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritildi. Sud tomonidan da'vo talabi qanoatlantirilib, o'qituvchining foydasiga 4 million 548 ming 147 so'm undirish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Mansur HASANOV,
Samarqand viloyat adliya
boshqarmasi mas'ul xodimi

TOSHKENT

Murojaatni o'rganish jarayonida Qibray tuman hokimining 2012-yil 23-yanvardagi qaroriga muvofiq xususiy mulk asosida I. Risbekovga tegishli bo'lgan Yashnobod (Qibray) tumani, "Tashisti" mahallasi, 2-berk "Tuzel" ko'chasi, 13-uyda joylashgan uy-joy davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilgani ma'lum bo'ldi.

Toshkent viloyat hokimining 2018-yil 10-fevraldagi qarori va Qibray tuman hokimining 2018-yil 2-fevraldagi qaroriga asosan Qibray tumanidagi Tuzel va Yangiobod qishlog'idagi bir qator yer maydoni davlat zaxira yerlari tarkibiga o'tkazilgani, Qibray tuman hokimining 2019-yil 14-martdagi qarori bilan tumandagi "Tovkenttepa", "Tashisti", "Jarboishi" va "Ibrat" mahallalari hududlarida yashovchi fuqarolarning turar-joylari hamda jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan noturar bino inshootlari davlat va jamoat ehtiyojlari uchun zarur bo'lganligi sababli, komissi-

FUQARO I. Risbekov Qibray va Yashnobod tuman hokimliklari tomonidan kompensatsiya to'lovi to'lanmayotganidan norozi bo'lib, Mirobod tuman adliya bo'limiga murojaat qildi.

ADLIYANING DA'VOSI QANOATLANTIRILDI



ya tomonidan shakllantirilgan ro'yxat asosida mulkdorlar hisobidan buzishga ruxsat berilganligi ma'lum bo'ldi. Shuningdek, ma'lum bo'lishicha, baholash hujjatlariga ko'ra, fuqaro I. Risbekovga o'rni qoplanmagan kompensatsiya miqdori 144 million 624 ming 792 so'mni tashkil etgan.

Mazkur murojaat yuzasidan Mirobod tuman adliya bo'limi tomonidan fuqaro I. Risbekovning manfaa-

tini ko'zlab fuqarolik ishlari bo'yicha Mirobod tumanlararo sudiga to'lab berilmagan kompensatsiya pulini undirish haqida da'vo arizasi kiritildi. Sudning hal qiluv qaroriga asosan fuqaroga 144 million 624 ming 792 so'm kompensatsiya puli to'lab berildi.

Amir SHAMSIQULOV,
Mirobod tuman adliya bo'limi
boshlig'i

BUXORO



MANSABDOR JARIMAGA TORTILDI

SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati Buxoro viloyat hududiy boshqarmasida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya qilish holati adliya boshqarmasi tomonidan o'rganilganda, bir guruh fuqarolarning 2022-yildagi yozma va "ishonch" telefoni orqali qilgan murojaatlari tegishli tuman (shahar) bo'limlariga yuborilgan bo'lsa-da, bu haqda murojaat egalari yozma yoxud elektron shaklda xabar berilmagani ayon bo'ldi. Fuqaro D.N.ning murojaati esa tegishlilikiga ko'ra tuman ichki ishlar bo'limi va prokuraturasiga yuborilgan, ammo muallifga javob xati yuborilmasdan qonunbuzilish holatiga yo'l qo'yilgani aniqlandi.

O'rganish jarayonida qonunbuzilish holatiga yo'l qo'ygan mansabdor shaxsga nisbatan ma'muriy javobgarlikka tortish to'g'risida bayonnoma rasmiylashtirilib, sudga yuborildi. Jinoyat ishlari bo'yicha Buxoro shahar sudining 2023-yil 4-apreldagi qaroriga asosan aybdor shaxsga nisbatan jarima jazosi tayinlandi.

Tuyg'un AZIMOV,
Buxoro viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi

MEHNAT TA'TILIM O'ZGARADIMI?

– Mehnat ta'tilim 15 ish kuni asosiy va 9 ish kuni qo'shimcha ta'tildan iborat edi. Endi yangi Mehnat kodeksi kuchga kirgach ta'tilim qanday bo'ladi?

R. JALOLOVA,
G'ijduvon tumani

– Yangi Mehnat kodeksining 217-moddasiga ko'ra, har yilgi asosiy eng kam mehnat ta'tilining davomiyligi 21 kalendar kunni tashkil etadi. Demak, 15 ish kuni asosiy ta'tilingiz endi 21 kalendar kun bo'ladi. Ya'ni xodimga kamida 21 kalendar kun ta'til berilishi shart, yillik uzaytirilgan ta'tillar berilishi nazarda tutilgan xodimlar bundan mustasno. Masalan, I va II guruh nogironligi bo'lgan xodimlarga – 30 kalendar kun yillik uzaytirilgan ta'til beriladi. Qo'shimcha 9 ish kuni masalasini esa tashkilot jamoa shartnomasida o'zi belgilaydi. Aytaylik, 9 ish kuni ta'til jamoa shartnomasida 10 kalendar kun qilib belgilanishi mumkin. Shunda 21+10=31 kalendar kun ta'til olasiz. Bundan tashqari quyidagi kategoriyalarga tushsangiz, yana qo'shimcha ta'tillar qo'shib beriladi. Mehnat kodeksining 220-moddasiga ko'ra, xodimga u bitta tashkilotda yoki tarmoqda ishlagan har 5 yil uchun davomiyligi 2 kalendar kun bo'lgan, biroq jami 8 kalendar kundan ko'p bo'lmagan har yilgi qo'shimcha mehnat ta'tili beriladi. Mehnat kodeksining 401-moddasiga ko'ra, 12 yoshga to'lmagan ikki va undan ortiq bolaning yoki 16 yoshga to'lmagan nogironligi bo'lgan bolaning ota-onasidan biriga (ota-ona o'rnini bosuvchi shaxsga) har yili davomiyligi kamida 4 kalendar kun bo'lgan haq to'lanadigan qo'shimcha ta'til beriladi.

Savolga G'ijduvon tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti Ilyos ISMATOV javob berdi

6 MUNOSABAT

**ISHDAN BO'SHATISH
HAM G'AYRIQONUNIY**

Ishga qabul qilishda ayollarni homiladorligi sababli ishga qabul qilishni rad etishga yo'l qo'yilmaydi va bunday rad etish qonunga xilof deb topiladi. Ish beruvchi ishga qabul qilishni rad etgan taqdirda rad etish sabablarining ishga qabul qilish huquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxs tomonidan imzolangan yozma asosini homilador ayol talabiga ko'ra uch kun ichida taqdim qilishi lozim.

Jinoyat kodeksiga muvofiq, ayolning homiladorligi yoxud shaxsni yosh bolani parvarish qilayotganini bila turib, uni ishga qabul qilishdan g'ayriqonuniy tarzda bosh tortish yoki ishdan bo'shatish bazaviy hisoblash miqdorining 25 baravarigacha miqdorda jarima yoki 3 yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

DASTLABKI SINOV

Ishga qabul qilish vaqtida homiladorlarga berilgan imtiyozlardan yana biri ishga qabul qilish chog'ida ularga nisbatan dastlabki sinovning qo'llanilmasligidir.

Istisno sifatida Mehnat kodeksining 129-moddasida homilador ayollarga dastlabki sinov muddati belgilanmasligi ko'rsatib o'tilgan. Bu ham homiladorlarning ishga kirishdagi muhim ijtimoiy kafolatlardan biri sanaladi.

**ISH JOYINI
O'ZGARTIRISH**

Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksining 142-moddasiga muvofiq, xodimning vaqtincha boshqa ishga o'tkazish to'g'risidagi iltimosi ish beruvchi tomonidan quyidagi uzrli sabablarga ko'ra qanoatlantirilishi lozim:

qaysi tibbiy xulosaga muvofiq homilador ayol vaqtincha yengilroq yoki noqulay ishlab chiqarish omillarining ta'sirini istisno etadigan ishga o'tkazishga muhtoj bo'lsa, o'sha tibbiy xulosaning mavjudligi xodimning boshqa ishga o'tkazish haqidagi iltimosini qanoatlantirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

**MEHNAT
SHARTNOMASINI
BEKOR QILISH**

Ish beruvchi o'z tashabbusiga ko'ra homilador xodim bilan mehnat shartnomasini bekor qilish chog'ida homiladorlarga nisbatan bir qancha imtiyozlar belgilangan bo'lib, bular Mehnat kodeksining 163-moddasida ifodalangan. Unga asosan mehnat shartnomasini homilador ayollar va uch yoshgacha bolasi bo'lgan xodimlar uchun kafolatlar berishni nazarda tutadigan talablarga rioya qilmasdan ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilish taqiqlanadi. Mazkur kafolatlar esa 408-moddada keltirilgan bo'lib, homilador ayollar bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilish-

Quyi darajadagi barcha qonun va qonunosti hujjatlari Konstitutsiyaga muvofiq bo'lishini inobatga olgan holda aytishimiz mumkinki, ish beruvchi hisoblangan korxona va tashkilotlar tomonidan homiladorlarning huquqlariga daxl qiluvchi holatlar bartaraf qilinadi.

**Homilador ayolni
ISHGA QABUL QILISHni
rad etish taqiqlanadi**

JORIY yilning 30-aprelida referendum asosida yangi tahrirda qabul qilinishi nazarda tutilayotgan Konstitutsiyaning 42-moddasida homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi, degan alohida norma kiritildi.

ga yo'l qo'yilmaydi, bundan tashkilot (uning alohida bo'linmasi) tugatilgan yoki yakka tartibdagi tadbirkorning ish faoliyati tugatilgan hollar mustasno.

Ayolning homiladorligi davrida muddatli mehnat shartnomasining muddati tugagan taqdirda, ish beruvchi ayolning yozma arizasiga binoan va homiladorlik holatini tasdiqlovchi tibbiy ma'lumotnoma taqdim etilgan taqdirda, mehnat shartnomasining amal qilish muddatini homiladorlik tugaguniga qadar, unga homiladorlik va tug'ish ta'tili berilgan taqdirda esa bunday ta'tilning oxiriga qadar uzaytirishi shart.

**TO'LIQSIZ ISH VAQTI**

Homilador ayollarga nisbatan to'liqsiz ish vaqtini belgilash borasida ish beruvchi uchun bir qator majburiyatlar belgilab o'tilgan. Bunda Mehnat kodeksining 186-moddasiga asosan ish beruvchi homilador ayolning, o'n to'rt yoshga to'lmagan bolaning (o'n olti yoshga to'lmagan nogironligi bo'lgan bolaning) ota-onasidan birining (ota-ona o'rnini bosuvchi shaxsning), shuningdek, oilaning betob a'zosini parvarishlashni amalga oshirayotgan shaxsning iltimosiga ko'ra ularga tibbiy xulosaga muvofiq to'liqsiz ish vaqti belgilashi shart.

**MEHNAT TA'TILINI
BERISH TARTIBI**

Mehnati kodeksining 403-moddasiga asosan ish beruvchi homilador ayollarga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida antenatal (tug'ruqqacha) parvarishlash (peri-

natal skrining va tashxis, majburiy tibbiy ko'riklar va boshqa majburiy tibbiy muolajalar) uchun o'rtacha ish haqi saqlangan holda qo'shimcha bo'sh kunlar berishi shart. Mehnat kodeksining 227-moddasiga muvofiq birinchi bor tashkil etilgan tashkilotlar uchun xodimlarga birinchi ish yili uchun har yilgi mehnat ta'tili birinchi ish yili tugaguniga qadar ushbu ta'tilni berish sharti bilan olti oy ishlamasidan ilgari yoki undan keyin berilishi mumkin. Olti oy o'tguniga qadar xodimning xohishiga ko'ra ayollarga – homiladorlik va tug'ish ta'tilidan oldin yoki undan keyin har yilgi mehnat ta'tili beriladi. Bundan tashqari, Mehnat kodeksining 228-moddasiga asosan xodimlar homiladorlik va tug'ish ta'tilining muddati boshlanganda har yilgi mehnat ta'tilini uzaytirish yoki boshqa muddatga ko'chirish huquqiga ega. Ushbu kodeksning 229-moddasida ham homiladorlar uchun mazkur huquq mustahkamlangan bo'lib, unda ham homiladorlar har yilgi mehnat ta'tilini uzaytirish yoki boshqa muddatga ko'chirish huquqiga ega ekanligi belgilab berilgan.

**TA'TIL DAVRIDA ISHGA
CHAQIRISH**

Homilador ayollarni ta'til davrida ish beruvchi tomonidan ishga chaqirish holatlarini bartaraf etish maqsadida Mehnat kodeksining 232-moddasida o'n sakkiz yoshga to'lmagan xodimlarni, homilador ayollarni va mehnat sharoitlari o'ta zararli va o'ta og'ir ishlarda band bo'lgan xodimlarni har yilgi mehnat ta'tildan chaqirib olishga yo'l qo'yilmaydi, degan norma belgilab qo'yilgan.

**YENGILROQ ISHGA
O'TKAZISH**

Mehnati kodeksining 394-moddasiga asosan tibbiy xulosaga muvofiq homilador ayollarning ishlab chiqarish normalari, xizmat ko'rsatish normalari avvalgi ishlardagi o'rtacha oylik ish haqi saqlangan holda kamay-

tiriladi yoki ular yengilroq ishga yoxud noqulay ishlab chiqarish omillarining ta'siridan xoli bo'lgan ishga o'tkaziladi.

Homilador ayolga yengilroq ish yoki noqulay ishlab chiqarish omillari ta'siridan xoli bo'lgan ish berish masalasi hal etilguniga qadar, u buning oqibatida qoldirilgan barcha ish kunlari uchun o'rtacha ish haqi saqlangan holda ishdan ozod etilishi lozim.

Yodgora ISKANDAROVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti
magistratura bosqichi talabasi



SO'NGGI yillarda mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida ham keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Binobarin, referendum asosida yangi tahrirda qabul qilinishi kutilayotgan Bosh qomusimizda tizimdagi eng muhim qoidalar konstitutsiya-viy jihatdan mustahkamlab qo'yilmoqda.

KONSTITUTSIYA LOYIHASIDA OLIY TA'LIM MASALASI



Xususan, Konstitutsiya loyihasining 51-moddasida "Fuqarolar davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishga haqli. Oliy ta'lim tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqiga ega", deb qayd etilmoqda. Mazkur norma, birinchi navbatda, demografik jarayonlar va urbanizatsiyani, bashariyat tafakkuri hamda xalqimizning o'sayotgan siyosiy dunyoqarashi, ongi va madaniyati, umum-xalq manfaati chuqur o'ylangan holda amalga oshirilmoqda.

Albatta, oliy ta'lim tizimida kechayotgan islohotlar nafaqat respublikamizda katta ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'ladi, balki xalqaro maydonda ham O'zbekis-

tonning obro'-e'tiborini yangi bosqichga olib chiqadi. Bu islohotlar ta'lim tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish, ma'naviy-ma'rifiy muhitni zamon talabiga moslash, o'qituvchi kasbining, nufuzini oshirish, yangi davr pedagoglarini tarbiyalash, pedagogika fanini rivojlantirish, innovatsion ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'limga joriy etishga katta e'tibor qaratish masalalariga jiddiy yondashish va shu bilan birga, o'qituvchilar oyli-gini oshirish va rag'batlantirib borishni ta'minlaydi.

Darhaqiqat, oddiy fuqaro ish qidirganda deyarli ko'p takliflarda oliy ma'lumotga ega bo'lishi kerakligi haqidagi shart bilan to'qnash keladi. Bu degani hozirgi sharoitda oliy ma'lumotning mavjudligi "dunyoga, farovonlikka ruxsatnoma"ga aylanmoqda. Ya'ni, oliy ma'lumot to'g'risidagi diplomga ega bo'lgan fuqaro ko'p haq to'lanadigan ishga kirishi, karera qilishi va davlat hamda jamiyatga ko'proq foyda keltirishi mumkin.

Yana bir muhim jihati – oliy ma'lumotli inson bilan oliy ma'lumot olmagani insonning dunyoqarashi o'rtasida katta farq bo'ladi. Shuning uchun ham yoshlarni ko'proq oliy ta'lim bilan qamrab olish umumiy savodxonlik darajasining ko'tarilishiga ham hissa qo'shadi.

Agar raqamlarga nazar tashlasak, so'nggi olti yilda oliy ta'lim muassasalariga qabul 5 baravarga ortib, talabalar soni 1 millonga yetdi. Qamrov esa 9 foizdan 38 foizga ko'tarildi. Masalan, 2016-yilda respublikamizda 77 ta oliygoh mavjud bo'lgani holda hozir ularning soni 210 tani tashkil qilmoqda.

Aholining keng qatlamlarini oliy ta'lim bilan qamrab olish masalasi Prezidentimiz tomonidan Birlashgan Millatlar tashkiloti minbarida ham ko'tarilib, 2030-yilgacha O'zbekistonda yoshlarning 50 foizini oliy ma'lumotli qilish rejalashtirilgan. Shu bois oliy ta'lim olish huquqi Konstitutsiya darajasigacha oshirilmoqda.

Sodda qilib aytganda, yoshidan qat'iy nazar, oliy ma'lumotni kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shaklida olishga sharoit yaratiladi. Qolaversa, oliy ta'lim bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi aloqadorlik integratsiyasi vujudga keladi.

Otabek BOBOJONOV,
TDYU "Magistratura va sirtqi ta'lim" fakulteti dekani

BIZGA ma'lumki, jinoyat sud ishlarini yuritishda shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, shu jumladan himoyalanihga bo'lgan huquqlarini ta'minlash jinoiy odil sudlovda muhim masalalardan biri hisoblanadi. Chunki sud-tergov amaliyotida aksariyat holatlarda shaxsning huquqiy bilim saviyasi yetarli darajada emasligi sababli, shaxs o'zining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qila olmasligi mumkin.



**HAR KIMGA
MALAKALI
YURIDIK YORDAM
OLISH HUQUQI
KAFOLATLANADI**

Buning natijasida shaxsning huquqlari va qonuniy manfaatlari buziladi. Bunday holatlarda shaxsning himoyalanihga bo'lgan huquqlarini ta'minlab berish masalalarining eng maqbul yechimi hisoblanadi.

Bugungi kunda, huquqiy yordamga ehtiyoj doimo va hamma joyda paydo bo'ladi. Fuqarolarning Konstitutsiyada mustahkamlangan asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlash uning huquqiy mexanizmini kiritmasdan amalga oshirib bo'lmaydi. Inson huquq va erkinliklarini davlat tomonidan himoya qilish kafolati o'z navbatida malakali yuridik yordam olish kafolatlarini talab etadi.

Mazkur masalaning dolzarbligidan kelib chiqib, yangilayotgan Konstitutsiyada ham shaxsning himoyalanihga bo'lgan huquqlari kengaytirilib, konstitutsiyaviy norma sifatida belgilanmoqda. Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 29-moddasida shaxsning himoyalanihga bo'lgan huquqi yanada mustahkamlanmoqda. Unga ko'ra:

"Har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda yuridik yordam davlat hisobidan ko'rsatiladi.

Har bir shaxs jinoyat protses-sining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligi huquqi amalda cheklangan paytdan e'tiboran o'z tanloviga ko'ra advokat yordamidan foydalanish huquqiga ega".

Mazkur normaning kiritilishi natijasida aholining barcha qatlami malakali yuridik yordam olishi mumkinligi kafolatlanmoqda. Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami uchun bepul yuridik yordam davlat tomonidan kafolatlanishiga olib keladi.

Jinoyat-protsessual kodeksining 50-moddasi, "Advokatura to'g'risida"gi qonunning 11-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 20-iyundagi "Advokatlar tomonidan ko'rsatilgan yuridik yordam uchun davlat hisobidan haq to'lash mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi advokatlar tomonidan ko'rsatilgan yuridik yordam uchun xarajatlardan ozod qilingan hollarda yuridik yordam uchun xarajatlardan davlat hisobiga o'tkaziladi.

Bundan tashqari, endilikda shaxsning himoyachi xizmatidan u ushlab tutilgan vaqt boshlab (uning harakatlanish erkinligi huquqi amalda cheklangan paytdan e'tiboran) himoyachining xizmatidan foydalanishi ham konstitutsiyaviy norma sifatida belgilanmoqda. Chunki shaxsni ushlashda aksariyat holatlarda shaxsdan uning huquqlari tushuntirilmagan ko'rsatmalar olish va shu ko'rsatmalarni keyinchalik o'ziga qarshi ishlatish holatlari mavjud. Shaxs ushlangan vaqtdan boshlab himoya huquqining ta'minlab berilishi yuqoridagiga o'xshash bo'lgan salbiy holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkin, shaxsning himoyaga bo'lgan huquqlarining yanada kengaytirib, ularning konstitutsiyaviy norma sifatida belgilanishi sud-tergov amaliyotida shaxsning himoyalanihga bo'lgan huquqlarini amalda ta'minlash bilan bir qatorda, ularga ishni yuritishda teng protsessual imkoniyatlar yaratishga ham xizmat qiladi.

Baxtiyor HIDOYATOV,
Toshkent davlat yuridik universiteti professori

E'OLONLAR

Namangan viloyat adliya boshqarmasi tomonidan "ADOLATLI-HIMOYA-ABV" advokatlik byurosi advokati Artikov Bosit Voxidovichga Namangan viloyat adliya boshqarmasi tomonidan 30.07.2019-yilda berilgan NA 000181-sonli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi hamda advokatlik maqomi "Advokatura to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 16-moddasiga asosan tugatildi.

Andijon viloyat adliya boshqarmasining 2023-yil 6-apreldagi 90-um-son buyrug'i bilan adliya boshqarmasi tomonidan 2018-yil 17-dekabrda berilgan AN №000026-sonli litsenziya egasi advokat Ergash-

boy Aysakov Ubaydullayevichning advokatlik maqomi tiklandi.

Andijon viloyat adliya boshqarmasining 2023-yil 6-apreldagi 91-um-son buyrug'i asosan Bo'ston tuman "Shu'la plyus imkon" advokatlik firmasi advokati Ashurov Yasinaxunga 2018-yil 25-dekabrda berilgan AN 000180 raqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya, Andijon shahar "ADVOKAT-URINOV" advokatlik byurosi advokati Urunov Sardar Kayumovichga 2019-yil 6-avgustda berilgan AN 000238 raqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya va advokatlik maqomi tugatildi.

8 TRENING

Eng qizig'i, gender munosabatlarning mazmun va mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirishi, ularning bu boradagi fikrlarini shakllantirishi lozim bo'lgan ishtirokchilar – ya'ni jurnalist va blogerlar, hatto huquqshunolar ham (albatta erkaklar) gender tenglikka xayrixoh emasligini ochiq bayon qilib, go'yoki bu sharaqona qadriyatlarimizga putur yetkazishi, oilada erkak va ayol o'rtasidagi ittifoqqa sovuqchilik tushirishi ham mumkinligi haqidagi fikrlarni bildirishdi. Treningda erkaklarni xavotirga solayotgan bu nozik mavzudagi bahs-munozaralarimiz oxiriga yetmasdan qoldi. Mavzu-ni davom ettiramiz.

GENDER TENGLIK NIMA?

Gender tenglik deganda ayrim erkaklar o'z mavqei, martabasi, mansabi va o'rni ayollar egallab olishidan xavotirini tushunadi. Ayollar esa gender tenglikni amalda erkaklar bilan teng huquqli bo'lishda, ayolga himoya, yelkadosh va ko'makdosh bo'lishlarida, ayolni tushunishlarida deb hisoblaydi.

Gender strategiyasi doirasida gender tenglik tushunchasi jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, madaniyat, ta'lim, ilm-fan, sport munosabatlari xotin-qizlar va erkaklarning huquq hamda imkoniyatlarining tengligini anglatadi. Bunda albatta bilim va saviya, salohiyat, ma'naviyat va ma'rifat har bir insonning jamiyatdagi o'rni belgilashi aniq.

Gender tenglik ba'zi erkaklar o'ylagandek, erkaklarning mavqeini tushiradigan siyosat emas, aksincha, bu insonni tushunish va qadrlash, hurmat qilish, tan olish falsafasi bilan o'chanadigan mezonidir.

KVOTALAR BILAN GENDER
TENGLIKKA ERISHA OLAMIZMI?

Keyingi yillarda gender tenglikka erishish uchun bir qator mexanizmlar ishga solindi. Masalan, tuman va shahar hokimlari lavozimiga xotin-qizlarning tavsiya qilinishi, senatorlar va Oliy Majlis qonunchilik palatasiga deputatlar saylovida xotin-qizlar uchun kvotalarning belgilanishi, xotin-qizlar uchun alohida nomdagi davlat mukofotlarining ta'sis etilishi, xotin-qizlarga bir qator imtiyozlarning berilishi albatta quvonarli hol.

Ammo tan olish kerak, jamiyatda ayolga munosabat sog'lom ma'naviy muhit darajasiga yetmaguncha gender tenglikka erishish qiyin. Kvotalar degani gender tenglik degani emas.



ADLIYA vazirligi tomonidan "Mintaqaviy muloqot" xalqaro davlat notijorat tashkiloti ko'magida "Ayollar muammolarini yoritishning huquqiy, professional va axloqiy me'yorlari" mavzusida o'tkazilgan ikki kunlik treningda "Gender tenglik deganda nimani tushunasiz?" hamda "Ommaviy axborot vositalari gender munosabatlarda jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi vosita" mavzularidagi sessiyalarda bahs-munozaralar qizg'in bo'ldi.

O'QIB, SIZGA
shahar olib beraman!OTASIGA "SPARK" SOVG'A
QILGAN KITOBXON QIZ

Esikdan qolgan stereotiplar hali ham bor. Masalan, qizlarning institutda ta'lim olishiga qarshilik qiladigan ayrim otalar "O'qishga bormaysan, o'qib shahar olib berarmiding" deya gapni cho'rt kesib, qizining orzulariga nuqta qo'yadi, kelajagini barbod qiladi.

Yoki o'rta maktabni oltin medal va institutni qizil diplom bilan bitirgan qizning turmushga chiqqach, xo'jayinning ko'ngliga qarab ishlamasligi, uyda o'tirishi ham gender tenglik nima deguvchilarga bitta javob.

Otasiga "Spark" sovg'a qilgan 15 yoshli navoiylik qiz haqida eshitgandirsiz. Zarafshon shahridagi 9-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Aziza Ibrohimova bu yil otasining xizmatlari tufayli 10-14 yosh toifasi bo'yicha o'tgan "Yosh kitobxon" tanlovining Respublika bosqichida birinchi o'rinni egallab, Prezident sovg'asini qo'lga kiritdi.

Otasi Jonudilla Narziyevning asl kasbi – muhandis-texnolog. Ammo taqdir taqozosi bilan sog'ligini yo'qotib, uzoq yillar to'shakka mixlanib, ishsiz uyda o'tirib qolgandi. Hayot uni Zarafshon shahridagi davlatga qarashli bolalar bog'chasida oddiy xizmatchi bo'lib ishlashga majbur qildi. Barcha qiyinchiliklarni yengib, bolalariga qanot bo'ldi, ularning ruhini sindirmaslikka harakat qildi. Bo'sh vaqtini uch nafar farzandining bilim olishiga, ularni o'zbek va jahon adabiyoti asarlari

bilan tanishtirib, kitob o'qishga ishtiyoqlarini oshirishga bag'ishladi.

O'qib, otasiga "Spark" sovg'a qilgan bilimdon va zukko qizning otasiga rahmat. O'qib shahar olib berasanmi, degan stereotipni sindirgan bu oiladan o'z farzandiga past nazar bilan qaraydigan otalar o'rnak olsa arziydi!

FOJIALARGA TUTASHGAN
STEREOTIPLAR...

Millatimizning qoniga singib ketgan eng og'ir stereotiplardan biri oilada qiz farzand tug'ilishiga daxldor. Farzand Yaratganing ulug' me'nati ekanligini bilmaydigan ayrim noshukurlar afsuski, oramizda bor. Gulchehra Asronovanning "Ota" degan hikoyasidan olingan quyidagi achchiq parchalarni o'qib, zora hayotga qarashingiz biroz o'zgarsa...

"...Noila qiz ko'rdi. Shiringina qizaloq. U Yaratganga shukrlar aytdi, yaqinlari to'lib-toshib qutlashdi. Faqat erining qiyofasidagi shodlikka allaqanday aks tuyg'ular soya solib turganini sezdi. Birinchisi o'g'il bo'lishini kutgandi. Ammo Xudoning bergani..."

Ikkinchi bor tug'uruqxona yo'l olganida o'zicha pinhona pichirladi: ishqilib bunisi o'g'il bo'lsin, shu odam suyunsin-da. Tag'in qiz tug'ildi. Eri sir boy bermadi-yu, unchalik chiroyi ochildi.

Uchinchi bor dard tutganda o'zi ham eridan kam nola qilmadi: o'g'il ber, o'g'il Ollohim! Ammo Xudoning aytgani bo'ladi-da, yana qiz ko'rdi.

Eri bu safar ochiq-oydin qovoq uydi.

Ortidan o'g'il yetaklab kelsin, deb ismini O'g'iloy qo'ydi.

To'rtinchi qiz tug'ildi... Murg'ak vujud dunyoga jar solib, "Men keldimi!" deya suyunchilab yig'ildi. Ammo hech kim suyunmadi... Shiringina, ko'zlari charos qizchaning dunyoga salomi diksiz qoldi. Yig'isiga onasi unsiz jo'r bo'ldi.

Eri ko'rishga biror marta ham kelmadi. "Shunchalar alamzada ekan-da..." ichi zil ketdi Noilaning. Kichik qizi topib kelgan gap esa yarasiga battar tuz sepdi. Qizaloq bolalarcha sodalik bilan so'zma-so'z aytib berdi: "Dadam chaqaloqni opkelmasa ham mayli, senlar o'zi yetasanlar, deyaapti. Kecha mast bo'lib kelib, menga qiz kerakmas, opkelsayam itga tashlayman, dedi. Nima endi chaqaloqni rostdanam..."

Noila shoshilib qizaloqning og'ziga kaftini bosdi... "Qo'y bolajonim gapirma. Dadang achchig'idan shunday degan..."

...Chaqaloq uyga kelgan kuni ota shiyponda tunab qoldi. Ertasi esa yarim tunda mast-alast kirib keldi.

– Dadasi, yaxshi keldingizmi?

– Yomon! – o'shqirdi er. – Yomonman! Hammasi seni deb! Hayotimni barbod qilding! Iching to'la qiz sening, badbax! Mana!

Noila musht zarbidan yerga cho'zilib tushdi. Uning ingrab yotishiga qarab, er... birinchi marta yengil tordidi. Xotini nazarida o'zichalik qiynalmayotgandek edi, mana endi hisob teng bo'ldi. Va shu kundan e'tiboran yuragiga alam to'lganida mushtiga zo'r berib, taskin izlashga odatlandi.

Noila hammasiga chidadi, ko'ndi. Barcha ozorlarga bardosh berdi. Ammo hali umidi bor edi – balkim, beshinchisi o'g'il bo'lar? Shu ilinjda shifokorlarning taqiqlariga ham quloq solmadi. Ortiq bunday yashay olmasdi.

Eh, bu dunyoning ishlari. Beshinchisi rostdan ham o'g'il ekan. "O'g'il! Noila aniq eshitdi... O'g'il!" Ammo Noila o'g'ilni ko'rolmadi...

Doyaning ovozi titradi:

– Qon bosimi tushib ketayapti.

– Yurak urishi to'xtayapti! Uskuna oynasidagi to'lg'in-to'lg'in chiziqlar zaif mavj urib, tep-tekis bo'lib qoldi.

Qishloqni faryod tutdi. Umri bitgan ekan. Zada va behol ona yillab intila-intila diydor chorrahasiga yetib keldi-yu, yuzlashmay ketaverdi. Nogiron bolani dunyoga keltirganini ham bilmay ketdi...

Bir-birimizga minnat bilan emas, g'urur bilan, mehr bilan yaxshilikni ravo ko'raylik! Insonni tushunish ulkan saodat ekanini his etaylik, tan olaylik!

Marusa HOSILOVA,
"Inson va qonun" muxbiri

**INSON
va qonun**

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI

"Adolat" milliy huquqiy axborot
markazi nashri
info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0061-raqam bilan
ro'yxatga olingan



**Bosh
muhammad**
Asiddin
ALIMARDON

TAHRIR HAY'ATI

Alisher Karimov
Furqat Tojiyev
Hayotjon Klichev
Sevara O'rinboyeva
Yorabek Iskandarov
Dilfuza Ergasheva

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqriz
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Navbatchi
Marusa Hosilova
Sahifalovchi-dizayner
Jasur Tojiyboyev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter bazasida teriladi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma tabaq hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uy

Tiraj – 3835
Buyurtma – 1109

Topshirish vaqti – 19:00
Topshirildi – 20:00

MANZILIMIZ:

100115, Toshkent sh.
Amir Temur shohko'chasi
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18

Obuna bo'limi:
(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5